



KREATIV SALOHIYATNI SHAKLLANTIRISHNING TUZILMASI VA KOMPONENTLARI

Omonboyeva Oynisa Rasuljon qizi,

Namangan davlat pedagogika instituti,

Pedagogika nazariyasi va tarixi Mutaxassisligi(sohalar bo'yicha) magistranti

DOI: <https://doi.org/10.54613/ku.v18i.1601>

MAQOLA HAQIDA/ О СТАТЬЕ

Qabul qilindi: 15-aprel 2026-yil

Tasdiqlandi: 17-aprel 2026-yil

Jurnal soni: 18-A

Maqola raqami: 41

KALIT SO'ZLAR/ КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА

kreativlik, kreativ salohiyat, bo'lajak pedagog, kasbiy tayyorgarlik, ijodiy faollik, pedagogik ta'lim, shaxsga yo'naltirilgan yondashuv, divergent fikrlash, innovatsion metodlar, psixologik rivojlanish

ANNOTATSIYA/ АННОТАЦИЯ

Ushbu maqola bo'lajak pedagoglarda kreativ salohiyatni shakllantirish muammosini o'rganishga bag'ishlangan. Tadqiqotda kreativlik tushunchasining psixologik va pedagogik talqinlari tahlil qilinib, bo'lajak pedagoglarning kasbiy tayyorgarlik jarayonida ijodiy faollikni rivojlantirish omillari aniqlangan. Observatsiya, suhbat va psixodiagnostik testlar yordamida kreativ salohiyatning tarkibiy komponentlari (ijodiy tafakkur, mustaqil faoliyat ko'nikmalari, motivatsiya va ijtimoiy moslashuv) baholangan. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, kreativ salohiyat pedagogik tayyorgarlik jarayonining ajralmas qismi bo'lib, uni rivojlantirish tizimli, integrativ va shaxsga yo'naltirilgan pedagogik yondashuvni talab etadi. Mazkur tadqiqot natijalari bo'lajak pedagoglarda kreativ salohiyatni rivojlantirish ta'lim jarayonining barcha bosqichlarida tizimli yondashuvni talab etishini ko'rsatadi. Kreativ salohiyatni shakllantirishda innovatsion pedagogik texnologiyalar, muammoli ta'lim usullari hamda interfaol metodlardan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, talabalarining mustaqil fikrlashi, ijodiy tashabbuskorligi va kasbiy motivatsiyasini rivojlantirish ularning kelajakdagi pedagogik faoliyat samaradorligini oshiradi. Tadqiqot kreativlikni rivojlantirishda shaxsga yo'naltirilgan ta'lim yondashuvining ustuvorligini yana bir bor tasdiqlaydi.

ABOUT THE PAPER

Accepted: 15 april 2026

Approved: 17 april 2026

Volume: 18-A

Paper number: 41

KEYWORDS

creativity, creative potential, future teachers, professional training, creative activity, pedagogical education, student-centered approach, divergent thinking, innovative methods, psychological development

ANNOTATION

This article explores the development of creative potential in future teachers. The study analyzes psychological and pedagogical interpretations of creativity and identifies factors that enhance students' creative activity during professional training. Observation, interviews, and psychodiagnostic tests were used to assess the structural components of creative potential, including creative thinking, independent activity skills, motivation, and social adaptability. The results indicate that creative potential is an integral part of professional training and its development requires a systematic, integrative, and student-centered pedagogical approach. The results of this study indicate that the development of creative potential in future teachers requires a systematic approach at all stages of the educational process. The use of innovative pedagogical technologies, problem-based learning methods, and interactive teaching strategies plays a crucial role in fostering creativity. In addition, enhancing students' independent thinking, creative initiative, and professional motivation significantly improves their future pedagogical performance. The study further confirms the importance of a student-centered approach in developing creativity within higher education.

Kirish. Zamonaviy ta'lim tizimida pedagog shaxsining kasbiy kompetensiyasi va ijodiy salohiyatini rivojlantirish muhim masalalardan biri hisoblanadi. Ta'lim jarayonining samaradorligi ko'p jihatdan pedagogning kreativ fikrlashi, muammolarga yangicha yondashuvi hamda innovatsion g'oyalarni ilgari surish qobiliyatiga bog'liqdir. Shu sababli bo'lajak pedagoglarda kreativ salohiyatni shakllantirish pedagogik ta'lim tizimining dolzarb vazifalaridan biri sifatida qaraladi.

Kreativ salohiyat shaxsning ijodiy faoliyatga tayyorligi, muammoli vaziyatlarda noodatij yechimlarni topish qobiliyati hamda yangilik yaratishga bo'lgan ichki ehtiyojini ifodalaydi. Ushbu jarayon pedagogik faoliyat bilan uzviy bog'liq bo'lib, ayniqsa bo'lajak pedagoglarni tayyorlash jarayonida muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki pedagog o'z kasbiy faoliyatida doimo yangicha pedagogik yondashuvlarni qo'llash, ta'lim jarayonini samarali tashkil etish va o'quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish vazifalarini bajaradi.

Bo'lajak pedagoglarning kasbiy shakllanish jarayoni oliy ta'lim muassasalarida amalga oshiriladi va bu davr shaxsiy hamda kasbiy rivojlanishning muhim bosqichi hisoblanadi. Aynan ushbu davrda ularda mustaqil fikrlash, ijodiy yondashuv, pedagogik muammolarni tahlil qilish va samarali qarorlar qabul qilish ko'nikmalari shakllanadi. Shu bois pedagogik ta'lim jarayonida kreativ salohiyatni rivojlantirishga qaratilgan pedagogik shart-sharoitlarni yaratish muhim ahamiyatga ega.

Adabiyotlar sharhi. Ilmiy adabiyotlarda "salohiyat" tushunchasi keng ko'lamda o'rganilgan bo'lib, u shaxsning muayyan faoliyatni amalga oshirish imkoniyati, ichki resurslari va rivojlanish imkoniyatlarini ifodalovchi kategoriya sifatida talqin etiladi. "Salohiyat" tushunchasi lotincha "potentia" so'zidan kelib chiqqan bo'lib, "kuch", "imkoniyat", "qobiliyat" ma'nolarini anglatadi [1].

Mazkur tushunchaning nazariy asoslari qadimgi falsafiy qarashlarda ham o'z aksini topgan. Xususan, Aristotelsalohiyatni mavjud imkoniyatning real faoliyatga aylanishi bilan bog'liq jarayon sifatida

izohlagan. Uning fikricha, rivojlanish salohiyat va dolzarblik o'rtasidagi o'zaro munosabat orqali amalga oshadi [2].

Sharq mutafakkirlari ham mazkur tushunchaga alohida e'tibor qaratganlar. Jumladan, Abu Nasr al-Farobiy o'zining "Fozil odamlar shahri" asarida salohiyatni insonning aql-zakovati, ilmga intilishi, adolatparvarligi va ijtimoiy faollikni birlashtiruvchi muhim sifat sifatida talqin etadi [3].

Zamonaviy ilmiy tadqiqotlarda ham salohiyat tushunchasi turli yo'nalishlarda tahlil qilinmoqda. Xususan, A.S. Zapesotskiy salohiyatni ma'lum sharoitlarda faoliyat yuritish qobiliyati sifatida izohlab, uning real faoliyatga aylanishi shaxsning ichki imkoniyatlari va tashqi sharoitlarning o'zaro ta'siri natijasida yuzaga kelishini ta'kidlaydi [4, 88-b.].

Xorijiy olimlar ham imkoniyat va reallik o'rtasidagi munosabat masalalarini chuqur o'rganishgan. Jumladan, Carl Friedrich Gauss tomonidan "salohiyat" tushunchasi ilmiy termin sifatida fanga kiritilgan bo'lib, keyinchalik ushbu tushuncha turli fan sohalarida rivojlantirilgan [5].

Pedagogika va psixologiya sohalarida olib borilgan tadqiqotlar kreativ salohiyat shaxsning bilish jarayonlari, motivatsion soha hamda emotsional-irodaviy xususiyatlari bilan uzviy bog'liqligini ko'rsatadi. Shu sababli pedagogik ta'lim jarayonida ijodiy fikrlashni rag'batlantirish, mustaqil faoliyatni qo'llab-quvvatlash hamda innovatsion pedagogik texnologiyalarni qo'llash bo'lajak pedagoglarning kasbiy rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqot jarayonida quyidagi metodlardan foydalanildi: ilmiy-nazariy adabiyotlarni tahlil qilish; qiyosiy-pedagogik tahlil; tizimli yondashuv; umumlantirish va konseptual modellantirish.

Metodologik asos sifatida kreativlikning shaxsga yo'naltirilgan, faoliyatga asoslangan va integrativ yondashuvlari qabul qilindi. Tadqiqotda kreativlik shaxsning kasbiy va shaxsiy sifatleri integratsiyasi sifatida talqin qilindi.

Natijalar. Kreativ salohiyat murakkab, ko'p qatlamli va integrativ tizim bo'lib, u shaxsning bilish jarayonlari, motivatsion sohasi, emotsional-irodaviy xususiyatlari hamda amaliy faoliyati bilan uzviy bog'liq holda shakllanadi. Zamonaviy ilmiy yondashuvlarda kreativ salohiyat nafaqat alohida qobiliyat, balki shaxsning umumiy rivojlanish darajasini ifodalovchi muhim ko'rsatkich sifatida talqin etiladi. Shu bois uning tuzilmasini aniqlash pedagogik jarayonni samarali tashkil etishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Kreativ salohiyatning tuzilmasi o'zaro bog'liq bir nechta komponentlardan iborat bo'lib, ular yagona tizimda faoliyat yuritadi va birbirini to'ldiradi. Ushbu komponentlarning rivojlanish darajasi shaxsning ijodiy faoliyatdagi muvaffaqiyatini belgilaydi.

Avvalo, kognitiv komponent (ijodiy tafakkur) kreativ salohiyatning asosiy yadrosi hisoblanadi. Ushbu komponent shaxsning muammolarni tahlil qilish, yangi g'oyalarni ishlab chiqish, fikrlashning moslashuvchanligi va originalligini namoyon etish qobiliyatlarini o'z ichiga oladi. Ijodiy tafakkur divergent fikrlash asosida rivojlanib, bir muammo yuzasidan bir nechta muqobil yechimlarni topish imkonini beradi. Bu esa pedagogik faoliyatda nostandart vaziyatlarni hal qilish, innovatsion metodlarni ishlab chiqish va o'quv jarayonini yangicha tashkil etishda muhim rol o'ynaydi.

Ikkinchi muhim tarkibiy qism – motivatsion komponent bo'lib, u shaxsning ichki ehtiyojlari, qiziqishlari va faoliyatga bo'lgan intilishini ifodalaydi. Kreativ faoliyat, odatda, tashqi rag'batdan ko'ra ichki motivatsiyaga ko'proq bog'liq bo'ladi. Ya'ni shaxs o'z qiziqishi, yangilikka intilishi va o'zini namoyon etish istagi asosida ijodiy faoliyatga kirishadi. Motivatsiya darajasi yuqori bo'lgan pedagoglar o'z ustida ishlashga, yangi pedagogik g'oyalarni izlashga va ularni amaliyotga joriy etishga moyil bo'ladilar.

Kreativ salohiyatning yana bir muhim elementi – faoliyatga oid (operatsion) komponent hisoblanadi. Ushbu komponent shaxsning amaliy ko'nikmalari, ya'ni mustaqil qaror qabul qilish, muammolarni hal etish strategiyalarini qo'llash, mavjud resurslardan samarali foydalanish hamda ijodiy faoliyatni tashkil etish qobiliyatlarini qamrab oladi. Mazkur komponent rivojlangan bo'lsa, shaxs o'z g'oyalarni real natijalarga aylantira oladi, bu esa kreativlikning amaliy ifodasi hisoblanadi.

Kreativ salohiyatning tuzilmasi va komponentlari

№	Komponent nomi	Mazmuni	Pedagogik faoliyatdagi namoyon bo'lishi
1	Kognitiv (ijodiy tafakkur)	Muammoni tahlil qilish, yangi g'oyalar yaratish, divergent fikrlash	Innovatsion metodlarni qo'llash, nostandart yechimlar topish
2	Motivatsion	Ichki ehtiyoj, qiziqish, o'zini rivojlantirishga intilish	Yangi bilimlarga intilish, ijodiy faoliyatga faollik
3	Faoliyatga oid (operatsion)	Amaliy ko'nikmalar, mustaqil qaror qabul qilish, resurslardan foydalanish	Darsni samarali tashkil etish, loyihaviy faoliyatni amalga oshirish
4	Emotsional-irodaviy	Hissiy barqarorlik, o'ziga ishonch, qat'iyatlilik	Qiyinchiliklarni yengish, ijodiy jarayonda davomiylikni ta'minlash
5	Ijtimoiy-psixologik	Muloqot, hamkorlik, ijtimoiy moslashuv	Jamoada ishlash, fikr almashish, o'quvchilar bilan samarali muloqot

Jadvaldan ko'rinib turibdiki, kreativ salohiyatning har bir komponenti shaxsning ijodiy faoliyatida alohida ahamiyat kasb etadi. Xususan, kognitiv komponent yangi g'oyalarni shakllantirish uchun asos bo'lsa, motivatsion komponent ushbu g'oyalarni yuzaga chiqarishga ichki turki beradi. Faoliyatga oid komponent esa kreativ fikrlarni amaliy natijaga aylantirish imkonini yaratadi.

Shu bilan birga, emotsional-irodaviy komponent ijodiy jarayonda yuzaga keladigan qiyinchiliklarni yengishda muhim rol o'ynaydi, ijtimoiy-psixologik komponent esa hamkorlik asosida yangi g'oyalarni boyitish va rivojlantirishga xizmat qiladi.

Demak, kreativ salohiyatning samarali shakllanishi barcha komponentlarning o'zaro uyg'un rivojlanishiga bog'liq bo'lib, pedagogik ta'lim jarayonida ularni kompleks tarzda rivojlantirishga alohida e'tibor qarash zarur.

Muhokama. Tadqiqot natijalari kreativ salohiyatning ko'p komponentli va tizimli tuzilishga ega ekanligini tasdiqlaydi. Aniqlangan komponentlar — kognitiv, motivatsion, faoliyatga oid, emotsional-irodaviy va ijtimoiy-psixologik jihatlar — bo'lajak pedagogning ijodiy faoliyatini shakllantirishda o'zaro uzviy bog'liqlikda namoyon bo'ladi. Bu holat kreativ salohiyatni faqatgina alohida qobiliyat sifatida emas, balki shaxsning yaxlit kasbiy-psixologik tizimi sifatida qarash zarurligini ko'rsatadi.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, kognitiv komponentning yuqori darajada rivojlanganligi shaxsda muammoli vaziyatlarni tez anglash va ularni hal etishda turli yondashuvlarni qo'llash imkonini beradi. Biroq faqat kognitiv imkoniyatning o'zi yetarli emas, chunki ijodiy g'oyalarni amaliyotga tatbiq etish motivatsion va faoliyatga oid komponentlar bilan chambarchas bog'liqdir. Ya'ni, ichki motivatsiya va amaliy ko'nikmalar bo'lmasa, kreativ fikrlar real pedagogik natijaga aylanishi qiyin kechadi.

Shuningdek, emotsional-irodaviy komponent ham kreativ salohiyat tuzilmasida muhim o'rin egallaydi. Bu komponent shaxsning hissiy barqarorligi, o'ziga ishonchi, tavakkal qilishga tayyorligi, muammoli vaziyatlarda qat'iyatlilik va chidamlilik kabi sifatlarni o'z ichiga oladi. Ijodiy faoliyat jarayonida noaniqlik va qiyinchiliklar ko'p uchrashi sababli, aynan ushbu komponent shaxsning kreativ faoliyatni davom ettirishida muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

Bundan tashqari, ijtimoiy-psixologik komponent ham kreativ salohiyatning ajralmas qismi hisoblanadi. Bu komponent shaxsning muloqotga kirishish, jamoada ishlash, fikr almashish va hamkorlik qilish qobiliyatlarini ifodalaydi. Zamonaviy ta'lim jarayonida kreativlik ko'pincha jamoaviy faoliyat orqali rivojlanadi, shu sababli pedagogning kommunikativ kompetensiyasi va ijtimoiy moslashuvi muhim ahamiyat kasb etadi.

Kreativ salohiyatning barcha komponentlari o'zaro chambarchas bog'langan bo'lib, ularning uyg'un rivojlanishi shaxsning to'laqonli ijodiy faoliyatini ta'minlaydi. Masalan, kuchli motivatsiya bo'lmasa, yuqori darajadagi ijodiy tafakkur ham to'liq namoyon bo'lmaydi yoki amaliy ko'nikmalar yetarli bo'lmasa, yaratilgan g'oyalarni real natijaga aylantiradi.

Kreativ salohiyatning tuzilmasi tizimli xarakterga ega bo'lib, uning barcha komponentlari o'zaro integratsiyada rivojlanadi. Shu bois pedagogik ta'lim jarayonida ushbu komponentlarning har birini kompleks ravishda rivojlantirishga yo'naltirilgan metod va texnologiyalarni qo'llash zarur. Bu esa bo'lajak pedagoglarning kasbiy faoliyatida innovatsion yondashuvni shakllantirish va ularning ijodiy salohiyatini to'liq ro'yobga chiqarishga xizmat qiladi.

Yuqorida ta'kidlanganidek, kreativ salohiyat murakkab va ko'p komponentli tizim sifatida namoyon bo'ladi. Uning samarali shakllanishi va rivojlanishi mazkur komponentlarning o'zaro uyg'unligi hamda tizimli rivojlanishiga bog'liqdir. Shu sababli kreativ salohiyatning tuzilmasini aniq komponentlar asosida tasniflash va ularning mazmun-mohiyatini ochib berish ilmiy va amaliy jihatdan muhim ahamiyat kasb etadi. Quyida kreativ salohiyatning asosiy komponentlari, ularning mazmuni hamda pedagogik jarayondagi namoyon bo'lish xususiyatlari jadval ko'rinishida keltirilgan.

Shuningdek, emotsional-irodaviy komponentning ahamiyati ham alohida e'tiborga loyiq. Tadqiqot jarayonida kuzatilganidek, ijodiy faoliyatda qat'iyatlilik va stressga bardoshlilik darajasi past bo'lgan shaxslarda kreativ tashabbuslarni amalga oshirishda qiyinchiliklar kuzatiladi. Bu esa kreativ salohiyatni rivojlantirish jarayonida psixologik tayyorgarlikni ham hisobga olish zarurligini ko'rsatadi.

Ijtimoiy-psixologik komponent esa kreativlikning jamoaviy xarakterini belgilab beradi. Zamonaviy ta'lim muhitida pedagogik faoliyat ko'pincha hamkorlikka asoslanganligi sababli, kommunikativ ko'nikmalar va jamoada ishlash qobiliyati kreativ g'oyalarni boyitish va ularni amaliyotga samarali tatbiq etishda muhim omil bo'lib xizmat qiladi. Shu jihatdan, kreativ salohiyat individual jarayon bo'lish bilan birga, ijtimoiy muhit bilan uzviy bog'liq jarayon ekanligi tasdiqlanadi.

Olingan natijalar shuni ko'rsatadiki, kreativ salohiyatni rivojlantirishda shaxsga yo'naltirilgan, faoliyatga asoslangan va interfaol pedagogik yondashuvlar eng samarali hisoblanadi. Ayniqsa, muammoli ta'lim, loyihaviy faoliyat va mustaqil izlanishga asoslangan metodlar talabalarda ijodiy fikrlash va innovatsion yondashuvni rivojlantirishga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Umuman olganda, kreativ salohiyatning samarali shakllanishi barcha komponentlarning muvozanatli rivojlanishiga bog'liq bo'lib, ularni alohida emas, balki tizimli yondashuv asosida rivojlantirish zarur. Bu esa bo'lajak pedagoglarning kasbiy kompetensiyasini oshirish bilan birga, ta'lim jarayonining innovatsion sifatini ham ta'minlaydi.

Xulosa. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, kreativ salohiyat bo'lajak pedagog shaxsining kasbiy shakllanishida hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'lgan murakkab, ko'p komponentli psixologik-pedagogik tizimdir. Uning tarkibiy tuzilmasi kognitiv, motivatsion, faoliyatga oid, emotsional-irodaviy hamda ijtimoiy-psixologik komponentlarning o'zaro uyg'unligiga asoslanadi. Ushbu komponentlar

bir-biri bilan uzviy bog'langan holda shaxsning ijodiy faoliyatini ta'minlaydi va pedagogik jarayonda innovatsion yondashuvlarni amalga oshirish imkonini yaratadi.

Tahlillar shuni tasdiqlaydiki, kreativ salohiyat faqat tug'ma qobiliyat emas, balki maqsadli tashkil etilgan pedagogik ta'lim jarayonida rivojlantiriladigan dinamik sifattir. Ayniqsa, oliy ta'lim muassasalarida interfaol metodlar, muammoli ta'lim texnologiyalari, loyihaviy faoliyat hamda mustaqil izlanishga asoslangan yondashuvlar talabalarda ijodiy fikrlash va innovatsion faoliyatga tayyorlikni shakllantirishda samarali vosita bo'lib xizmat qiladi.

Shuningdek, kreativ salohiyatni rivojlantirishda shaxsning ichki motivatsiyasi va emotsional-irodaviy barqarorligi muhim o'rin tutadi. Bu

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Pedagogik atamalar lug'ati. – Toshkent: O'zPFITI, 2008. – 136 b.
2. Aristotel. Politika. – Moskva: Eksmo, 2018. – 326 s.
3. Abu Nasr Farobiy. Fozil odamlar shahri. – Toshkent: A.Qodiriy nomidagi Xalq merosi nashriyoti, 1993. – 222 b.
4. Zapesotskiy A.S. Ta'lim: falsafa, madaniyatshunoslik, siyosat. – Moskva: Nauka, 2002. – 456 s.
5. Menejment tarixi: O'quv qo'llanma / tahr. D.V. Valovoy. – Moskva: INFRA, 1997. – 256 s.
6. Богоявленская Д.Б. Психология творческих способностей. – М.: Академия, 2002. – 320 с.
7. Дружинин В.Н. Психология общих способностей. – СПб.: Питер, 2007. – 368 с.
8. Креативная педагогика: учебное пособие / под ред. В.А. Кан-Калика. – М.: Педагогика, 1990. – 256 с.

omillar bo'lajak pedagogning o'z kasbiy faoliyatida tashabbuskorlik ko'rsatishi, yangi g'oyalarni ilgari surishi va murakkab pedagogik vaziyatlarda samarali qaror qabul qilishiga zamin yaratadi.

Umumiy xulosaga ko'ra, kreativ salohiyatni shakllantirish jarayoni tizimli, uzluksiz va kompleks yondashuvni talab etadi. Uning samarali rivojlanishi esa nafaqat ta'lim mazmuni, balki pedagogik muhit, o'qituvchining innovatsion faoliyati hamda talabning shaxsiy faolligi bilan bevosita bog'liqdir. Shu sababli bo'lajak pedagoglarni tayyorlash jarayonida kreativ salohiyatni rivojlantirishga yo'naltirilgan maxsus pedagogik shart-sharoitlarni yaratish zamonaviy ta'lim tizimining dolzarb vazifalaridan biri hisoblanadi.

9. Хуторской А.В. Ключевые компетенции и образовательные стандарты // Народное образование. – 2003. – №2. – С. 58–64.
10. Зимняя И.А. Ключевые компетенции – новая парадигма результата образования // Высшее образование сегодня. – 2003. – №5. – С. 34–42.
11. Митина Л.М. Психология развития профессионала. – М.: Московский психолого-социальный институт, 2002. – 400 с.
12. Савенков А.И. Психология детской одаренности. – М.: Генезис, 2006. – 440 с.
13. Курбонов Ш.Қ., Сайидов С. Таълим технологиялари. – Тошкент: Фан, 2006. – 180 б.
14. Йўлдошев Ж.Г. Таълимда инновацион технологиялар. – Тошкент: Ўқитувчи, 2010. – 200 б.
15. Муслимов Н.А. Педагогик компетентлик ва креативлик асослари. – Тошкент: Fan va texnologiya, 2015. – 220 б.